



OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURATI

Ruziyeva Shaxlo Raupovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0005-4448-155X

shakhlo_ruzieva_raupovna@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lismining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri, uning strategik ahamiyati, iqtisodiy o'sish va innovatsion rivojlanishdagi o'rni nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'limga rivojlanishdagi muammolar va qiyinchiliklar, jumladan, ta'limga sifati, moliyalashtirish masalalari, mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlik, ilmiy maqola salohiyatining yetarli emasligi kabi omillar tahlil qilingan. Maqolada muallif tomonidan oliy ta'limga tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'limga, bilimlar iqtisodiyoti, innovatsion ta'limga, mehnat bozori, kadrlar tayyorlash, ta'limga sifati, ta'limga tizimi, universitetlar va sanoat hamkorligi.

ВАЖНОСТЬ И НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ УСЛУГ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Рузиева Шахло Рауповна

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье теоретически освещается влияние системы высшего образования на экономику страны, ее стратегическое значение, роль в экономическом росте и инновационном развитии. Также были проанализированы проблемы и трудности в развитии высшего образования, в том числе такие факторы, как качество образования, вопросы финансирования, тесная связь с рынком труда, недостаточный научно-исследовательский потенциал. В статье автором даны рекомендации по совершенствованию системы высшего образования.

Ключевые слова: высшее образование, экономика знаний, инновационное образование, рынок труда, обучение, качество образования, система образования, сотрудничество университетов и промышленности.

THE IMPORTANCE AND NECESSITY OF DEVELOPING HIGHER EDUCATION SERVICES

Ruziyeva Shakhlo Raupovna

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article theoretically covers the impact of the higher education system on the country's economy, its strategic importance, its role in economic growth, and innovative development. It also analyzed the problems and difficulties in the development of higher education, including such factors as quality of education, financing issues, inextricable connection with the labor market insufficient scientific potential. The article provides recommendations by the author for improving the higher education system.

Keywords: higher education, knowledge economics, innovative education, labor market, training, quality of education, education system, universities and industrial cooperation.

Kirish.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi bevosita inson kapitalining rivojlanish darajasiga bog'liq. Oliy ta'lif tizimi jamiyatda malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy maqolalarni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda oliy ta'lif sohasi mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash va intellektual salohiyatni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada oliy ta'lifning mamlakat iqtisodiyotidagi roli tahlil qilinadi, oliy ta'lif tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar aniqlanadi hamda bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi.

Oliy ta'lif nafaqat bilimli mutaxassislarni tayyorlash, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlariga innovatsiyalarni olib kirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ham xizmat qiladi. Yuqori sifatli oliy ta'lif tizimi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinalarini yaratish va aholi turmush darajasini yaxshilashga imkon beradi. Shu sababli, ko'plab mamlakatlar oliy ta'lif tizimini isloh qilish va uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Inson kapitalini rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar yetishtirish, oliy ta'lif bitiruvchilarining innovatsion faoliyatiga jalb qilinishi oliy ta'lifning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Maqolada keltirilgan adabiyotlar sharhi oliy ta'lifni rivojlantirishga oid turli nazariy yondashuvlarni o'rganadi va bu sohadagi mavjud muammolarni hal etish uchun yangi usullarni taklif etadi. Shuningdek, oliy ta'lifning iqtisodiyotni mustahkamlashdagi roli, ilm-fan va texnologiyalarga ta'siri haqida so'z yuritilib, bu boradagi ilg'or tajribalar tahlil qilinadi. Adabiyotlar sharhi ilmiy tadqiqotlar va amaliyotdagi muvaffaqiyatlari tajribalar orqali oliy ta'lif tizimini yaxshilash bo'yicha samarali tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Abdullaeva (2021) ta'kidlashicha oliy ta'lif tizimi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida mamlakatda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar va texnologik yangiliklarni ishlab chiqish orqali iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xamidov (2020) o'z maqolasida keltirishicha bugungi kunda oliy ta'lif tizimidagi asosiy muammo uning amaldagi dasturlarining bozor talablariga mos kelmasligi, natijada iqtisodiyot sohalarida malakali kadrlarning yetishmasligi yuzaga kelmoqda. Yuldashev (2023) ta'kidlashicha oliy ta'lifning iqtisodiyotdagi roli malakali kadrlar tayyorlash bilan cheklanmay, u ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish orqali ham davlat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shin va Jung (2022) ta'kidlashicha East Asia misolida oliy ta'lif tizimining iqtisodiyotga ta'siri ko'rsatilgan bo'lib, u iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Deloitte va Touche (2021) Oliy ta'lifni rivojlantirishning iqtisodiy natijalari nafaqat kadrlar tayyorlash bilan cheklanib qolmaydi, balki u innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratadi. Mazzarol, Soutar va Huisman (2020) Oliy ta'lif tizimi iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada oliy ta'lif xizmatlarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, oliy ta'lif tizimining rivojlanishiga oid nazariy kontseptlar va oliy ta'lif tizimidagi ijtimoiy va iqtisodiy talablarga moslashuvi tahlil qilindi. Oliy ta'lif xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy natijalari ko'rib chiqildi. Oliy ma'lumotli aholining iqtisodiy o'sishdagi roli qanday ekanligi va oliy ta'lif tizimining rivojlanishiga ta'sir etuvchi muammolar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Oliy ta'lim tizimi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. U iqtisodiy resurslarning samarali ishlatalishini ta'minlash, innovatsiyalarni rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash orqali iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish va ta'lim tizimining global miyosda raqobatbardoshligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyoti o'sishi mumkin.

1-jadval

Oliy ma'lumotli aholining iqtisodiy o'sishdagi roli

Ko'rsatkich	Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar
Oliy ma'lumotli ishchi kuchi ulushi (%)	50-70%	15-40%
Ilmiy maqolalarga ajratilgan mablag' (YIMdan foiz)	2-4%	0.3-1%
Ishsizlik darajasi (%)	3-6%	8-15%

Shu bilan birga, oliy ta'limni rivojlantirishda qator muammolar va qiyinchiliklar mavjud. Ta'lim sifati, moddiy-texnik baza yetishmovchiligi, xalqaro standartlarga mos keladigan o'quv dasturlarining yo'qligi, kadrlar tayyorlashda mehnat bozori talablarining hisobga olinmasligi kabi masalalar oliy ta'lim tizimining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minoti, ilmiy maqolalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi cheklar ham dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Shunday ekan, ushbu maqolaning asosiy maqsadi – mamlakat iqtisodiyotida oliy ta'limning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish, shuningdek, oliy ta'limni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar va qiyinchiliklarni o'rganish hamda ularni hal qilish bo'yicha takliflarni ilgari surish hisoblanadi. Ushbu mavzu bo'yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar oliy ta'lim tizimini takomillashtirish va uning iqtisodiy taraqqiyotga qo'shayotgan hissasini oshirishga qaratilgan muhim strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng asosiyalaridan biri inson kapitalining shakllanishidir. Oliy ta'lim esa inson kapitalini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, zamonaviy bilim va innovatsiyalarni ishlab chiqish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hamda iqtisodiyotning turli sohalariga integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadi, oliy ta'lim tizimining rivojlanganligi va iqtisodiy o'sish o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Juhon Banki va BMT ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YIM)ning o'sish darajasi oliy ta'lim sifatiga bog'liq bo'lib, har yili oliy ta'limga investitsiyalar 1% ga oshirilsa, iqtisodiyotning o'sish sur'ati 0,3-0,5% ga tezlashishi mumkin.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mehnat bozori yuqori malakali kadrlarni talab qiladi. Oliy ta'lim esa kasbiy kompetensiyalar, ilmiy-maqola salohiyati va innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlaydi.

2-jadval

Oliy ta'limning mamlakat iqtisodiyotidagi roli

Ko'rsatkich	Rivojlangan mamlakatlar (%)	Rivojlanayotgan mamlakatlar (%)
Oliy ma'lumotli aholi ulushi	50-70%	15-40%
Innovatsion startaplar ulushi	60%	20%
YIMdagi ilmiy maqola ulushi	2-3%	0.3-1%

Ilmiy maqolalar va innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim manbalaridan biridir. Innovatsion iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Ilmiy maqolalar va texnologik rivojlanish
- Startap ekotizimining shakllanishi
- Ta'lif va sanoat integratsiyasi

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lif va ilmiy maqolalarga investitsiya ajratayotgan mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya) eng yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari ega.

Oliy ta'lif tizimining rivojlanishiga ta'sir etuvchi qator muammolar mavjud. Ularning asosiyлари quyidagilar:

Ta'lif sifatining pastligi, o'quv dasturlarining zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bermasligi, kadrlar malakasining xalqaro standartlarga mos kelmasligi, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatining pastligi shular jumlasidandir.

3-jadval

Oliy ta'lif tizimining rivojlanishiga ta'sir etuvchi muammolar

Muammo	Rivojlangan mamlakatlar (%)	Rivojlanayotgan mamlakatlar (%)
O'quv dasturlarining eskirganligi	10%	60%
O'qituvchilarning ilmiy darajasi yetarli emasligi	20%	55%
Mehnat bozori bilan uzviy bog'liq emasligi	15%	70%

Oliy ta'lifni moliyalashtirish muammolari. Ko'plab mamlakatlarda oliy ta'lif muassasalari yetarli moliyaviy mablag'ga ega emas. Oliy ta'lifni moliyalashtirishning asosiy manbalariga davlat budgeti, xususiy sektor sarmoyalari, xalqaro grantlar va fondlar kiradi. Ilmiy-maqola faoliyatining yetarlicha rivojlanmaganligi. Ilmiy maqolalar yetarli darajada rivojlanmaganligi oliy ta'lifning iqtisodiyotga ta'sirini pasaytiradi.

Shunday qilib, oliy ta'lif tizimini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bu sohada chuqur islohotlar amalga oshirilishi lozim. Innovatsion taraqqiyot va ilmiy maqolalar, texnologik rivojlanishning tezlashishi, ilmiy innovatsiyalar orqali yangi ishlab chiqarish sektorlarini yaratish, ilmiy-maqola natijalarini iqtisodiy amaliyotga joriy etish mamlakatimiz iqtisodiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lifni rivojlantirishga innovatsion yondashuvlarga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lif modeli, ta'lif-sanoat integratsiyasi, blokcheyn texnologiyalari va smart shartnomalar, gamifikatsiya va ta'linda interaktiv yondashuvlar kiradi. Hozirgi kunda oliy ta'lifni raqamlashtirish global tendensiyaga aylangan. Bularga quyidagilar kiradi. Massive Open Online Courses (MOOC) – masofaviy ta'lif platformalari (Coursera, EdX, Udemy), sun'iy intellekt (AI) asosida ta'lif – talabalar bilim darajasini tahlil qilish va individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish, virtual va kengaytirilgan reallik (VR & AR) – muhandislik, tibbiyot va boshqa sohalarda amaliy mashg'ulotlarni simulyatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv texnik va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u quyidagi ustunliklarga ega. Ilm-fan va texnologiyaga asoslangan ta'lif, rivojlangan mamlakatlar mehnat bozorining talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish kabi yo'nalishlar o'rjaniladi.

Oliy ta'lif va biznes hamkorligi kuchaytirilishi kerak. Bu quyidagilarga imkon yaratadi. Universitetlarning startap ekotizimiga kirishi, katta kompaniyalar bilan hamkorlikda amaliy

mashg'ulotlar va stajirovkalar tashkil qilish, kafedra va laboratoriyalarni sanoat bilan bog'liq holda modernizatsiya qilish jarayoni hamkorlik dasturlariga kiradi.

4-jadval

Ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotga tatbiq etish bo'yicha davlatlar tahlili

Mamlakat	Ilmiy maqolalarga ajratilgan mablag'(YIM foizida)	Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish ko'rsatkichi (%)
AQSh	2.7%	65%
Germaniya	3.0%	70%
O'zbekiston	0.2%	25%

Akademik kredit tizimi va diplomlarni blokcheyn asosida yuritish – bu talabalarning akademik yutuqlarining soxtalashtirilishining oldini oladi va xalqaro tan olinishini oshiradi. Ta'lif grantlarini shaffof ajratish – moliyaviy resurslarningadolatli taqsimlanishini ta'minlaydi. O'yin texnologiyalaridan foydalanish – talabalar motivatsiyasini oshiradi. Simulyatsion mashg'ulotlar – tibbiyot, muhandislik va iqtisod sohalarida qo'llanilishi mumkin. Liderlik va tadbirkorlik kurslari – yosh mutaxassislarning bozor talablariga javob bera olishi ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rniда shuni aytish mumkinki, yuqoridaq tahlillar orqali quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin. Ta'lif dasturlarini modernizatsiya qilish, mehnat bozori talablariga mos o'quv rejalarini ishlab chiqish, oliy ta'lif muassasalarini xususiy sektor bilan integratsiya qilish, moliyalashtirish tizimini yaxshilash, davlat budgetidan ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish, ilmiy maqolalar va startap loyihamonlari qo'llab-quvvatlash, ilmiy maqolalarni amaliyotga tatbiq etish, ilmiy ishlanmalarni sanoatga joriy qilish, innovatsion markazlar va texnoparklarni kengaytirish alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Oliy ta'lif tizimining iqtisodiyotdagagi o'rni beqiyos bo'lib, u inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion taraqqiyot va ilmiy-maqolalarni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lifning samaradorligini oshirish uchun quyidagi innovatsion yondashuvlar joriy etilishi zarur:

1. Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish
2. STEAM ta'lif modelini rivojlantirish
3. Ta'lif va sanoat o'tasida yaqin aloqalarni yo'lga qo'yish
4. Ilmiy-maqola faoliyatini tijoratlashtirish
5. Blokcheyn va sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish

Mamlakat iqtisodiyoti uchun oliy ta'lif tizimini modernizatsiya qilish – bu zamonaviy raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va ilm-fanni amaliyotga tatbiq qilishning asosiy omili hisoblanadi. Shunday ekan, oliy ta'lif va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish strategik ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda mamlakat taraqqiyotiga kuchli turtki berishi kutilmoqda.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Abdullaeva, M. (2021). "Oliy ta'lif tizimining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri va uning rivojlanish yo'llari". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi.

Deloitte & Touche (2021). "The Economic Impact of Higher Education". Journal of Economic Studies, 48(2), 234-250. <https://doi.org/10.1108/JES-09-2020-0435>

Mazzarol, T., Soutar, G. N., & Huisman, J. (2020). "The Role of Higher Education in Economic Development: The Case of Australia". *Higher Education*, 79(5), 891-908. <https://doi.org/10.1007/s10734-019-00432-7>

Shin, J. C., & Jung, J. (2022). "Rethinking the Role of Higher Education in Economic Development: The Case of East Asia". *Higher Education Quarterly*, 76(2), 180-200. <https://doi.org/10.1111/hequ.12398>

Xamidov, R. (2020). "Oliy ta'limni rivojlantirish: Muammolar va istiqbollar". *Oliy ta'lim jurnali*, 5(2), 22-31.

Yuldashev, S. (2023). "Oliy ta'lim tizimining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri". *Oliy ta'lim va iqtisodiyot*, 7(1), 50-55.